

O'SMIRLARDA DEVIANT XULQ-ATVOR SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI

Kuziyeva Gulmira Erkinjon qizi

*Namangan Davlat Pedagogika institute Kreativ pedagogika va
psixologiya ksfedrasi stajor-o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqola o'smirlar davrida deviant xulq-atvor shakllanishiga ta'sir qiluvchi psixologik determinantlarni tahlil qilishga bag'ishlanadi. Unda deviant xulq-atvorning kelib chiqishi faqat ijtimoiy omillarga bog'liq emasligi, balki shaxsiyatning chuqur tuzilishi, o'z-o'zini past nazorat qilishi, impulsivlik, emotsional beqarorlik, empatik defitsit kabi individual-psixologik omillar bilan bevosita bog'liqligi ko'rsatiladi. Oiladagi tarbiya usullari, nosog'lom guruh ta'siri va noto'g'ri ijtimoiy o'zini anglash kabi tashqi psixologik omillari bilan birga kelishi haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *O'smirlar, deviant, xulq-atvor, psixologiya, jinoyatchilik, determinant.*

Kirish. Bugungi kunda tez o'zgarib borayotgan dunyo, insoniyat ayniqsa, yosh avlod oldida yangidan-yangi buyuk imkoniyatlar ochmoqda. Shu bilan birga, ularni ilgari ko'rmagan va bilmagan hatto eshitmagan turli yovuz xavf-xatarlarga ham duchor qilib kelmoqda. G'arazli kuchlar sodda, g'o'r bolalarni o'z domiga tortib bormoqda hattoki o'z ota – onasiga, o'z yurtiga qarshi qayrab, ularning hayotiga, umriga, zomin bo'lmoqda. Ko'p oilalarning parokandaligiga sababchi ham bo'lmoqda. Kishining deviant axloqini jamiyatda qabul qilingan meyorlarga ziddligi va ruhiy jarayonlarining muvozanatsizligi, moslashuvchan emasligi, ko'rinishida yoki uning shaxsiy axloqi ustidan axloqiy va estetik nazoratdan bo'yin tovlash ko'rinishidagi o'zini faollashtirish jarayonining buzilishida namoyon bo'luvchi alohida qilmishlar tizimi sifatida belgilash mumkin. Normal va uyg'un axloq shakllarini ruhiyat bilan bog'liq uch darajada ifodalash mumkin:

- ruhiy jarayonlarning muvozanati ko'rinishidagi mijoz xususiyatlari;
- moslashuvchanlik va o'zini faollashtirish ko'rinishidagi xos xususiyatlar;
- kishining ma'naviyati, mas'uliyati va vijdonliligi ko'rinishidagi shaxsiylik.

Og'uvchi xulq (deviant, lot. deviatio – og'ish) deb, kishining qilmishlari, faoliyati turi odatiy, umume'tirof etilgan me'yorlardan farq qiladigan yoki u o'zi a'zosi bo'lgan jamiyat tomonidan qabul qilingan me'yorlarga mos kelmay, barqaror ravishda ularning ijtimoiy me'yorlaridan og'ishida namoyon bo'ladigan axloqqa aytiladi. Hozirgi vaqtda deviant xulq-atvorning sababi shundaki, o'smirlar ijtimoiy tabaqalanishni boshdan kechirmoqdalar, yo'qchilikda yashay olmaydilar va yaxshi ta'lim olishni xoxlaydilar. Yo'qchilikda hozirgi

yoshlar deviant xulq-atvorga moyil bo'lib qolishmoqda. Shu asosda psixologik siljish yuz bermoqda, bu tanqidlar, janjallar, asabiy buzilishlar, huquqbuzarlik va uydan qochish bilan yakunlanadi.

Hozirgi vaqtda o'smirlar o'rtasida deviant xulq-atvor ko'payotgani ma'lumdir. Deviant xulq-atvorni oldini olish uchun eng avvalo deviant harakatlarning namoyon bo'lishiga yordam beradigan turtki nima ekanligini tushunish kerak. Ota-onalar va o'smirlar o'rtasidagi aftoritar muloqot, o'qituvchi va o'smirlar orasidagi avtaritar muloqot deviant xatti-harakatlarning sababiga aylanadi. Hozirgi o'smirlarga avtaritar muloqot va moliyaviy yo'qchilik psixologiyasiga noto'g'ri ta'sir qilmoqda va deviant xulq-atvorga moyil bo'lib qolmoqda. Ba'zida faqatgina ota-onaning g'amxo'rliqi va nazorati o'smirlar uchun yetarli emas. Ota-onalardan birining o'limi, ajralishlar ham o'smirlar deviant xulq-atvorning paydo bo'lishiga olib keladi. Ota-onalar bilan bog'liq har xil muammolar deviant xatti-harakatlarning sababiga aylanishi mumkin. O'smirlarning turli xil qo'rquvlarini (yoshga doir tanasidagi garmonal o'zgarishlar) kattalarga aytishga xijolat bo'lishadi. Ota-onalar tomonidan nazoratning yo'qligi, ota-onani farzandga befarqligi, haddan tashqari farzandga nisbatan nazoratni kuchaytirish, ota-onaning farzandlardan uzoqdaligi chet davlatga pul toppish maqsadida ketishi ham o'smirlarda og'ish harakatlarini vujudga kelishiga sabab bo'lishi mumkin. Hozirgi vaqtdagi o'smirlarda tez og'ish kuzatilmoqda, chunki barcha o'smirlarning qo'lida uyali aloqa vositasi bor. Shu ham sabab bo'ladi.

Uyali aloqa vositasida ochiq oydin barcha voqea hodisalarni ko'rishi ham o'smirlarni xulqiga ta'sir ko'rsatmoqda.

Aynan shu sabab ta'lim tizimida ijtimoiy-psixologik muhitni, psixologik xavfsizlik tizimini yaratish dolzarbdir. Ta'lim muassasasi asosiy profilaktik tizimga aylanishi shart, ya'ni bir paytning o'zida o'quvchi shaxsining muammolarini yechishga yordam berishi lozim. Kuchli tayyorgarlikka ega o'qituvchi, ayniqsa maktab psixologi, bolaning xulq buzilishlarini oldini olishda asosiy ro'lga ega bulishi mumkin. Respublikamizda o'smirlar suisidi bo'yicha olib borilgan psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, pedagoglar, ota-onalar va boshqa mutaxassislar suisidial xulq-atvor shakllari haqida yetarli ma'lumotga ega emas. O'z vaqtidagi psixologik yordam, o'smirlarni hayotning har qanday vaziyatlariga astoydil psixologik tayyorgarlik bunday nohush holatlarning oldini olgan bo'lar edi. Ta'lim tizimidagi suisid muammosining oldini olishning yechimi kadrlar masalasiga bog'lik, birinchi galda maktab psixologi, o'qituvchi va tarbiyachini tayyorlash lozim. Pedagogika, psixologiya, meditsinaga doir qo'shimcha tayyorgarliklar suisidial xatti - harakatga ega o'quvchi muammosining oldini olish va korreksiya qilish mohirlik bilan yechishga yordam beradi.

O'smirlarda o'z joniga qasd qilish holatlari kattalarnikidan ancha farq qiladi. Chunki o'smirlar natijani o'ylamay ish qiladi. O'smirlar o'rtasidagi o'lim sabablarining 90 foizi, bu - yordamga muhtojlik, "hayiqish» bo'lsa, faqat 10 foizi ixtiyoriy joniga qasd qilish holatidir. Suisid qurbonlari odatda ruhan kuchli azoblanayotgan va stress holatida bo'lib, o'z muammolarini mustaqqil yecha olmasligi, o'z joniga qasd qiluvchilarni ruhshunoslarning ta'kidlashicha, atrofdagilarni tushunmasligi yoki atrofida yaqin insonlarning yo'qligi, moliyaviy yetishmovchilik, yolg'izlik, mehr- muhabbat yetishmasligi kabi sabablarga borib taqaladi. Ayniqsa ko'p qizlarda uchraydigan holat nomusining toptalishi bunga sabab bo'lmoqda. Bilib bilmay moliyaviy qiyinchilik sabab o'smirlar har qanday jinoyatchilik yo'llariga kirib qolmoqda. Jinoyatchilik yomon yo'lligini anglaganida esa bu yo'ldan chiqishning yagona yo'li o'z joniga qasd qilish degan fikrda suisidga qo'l urishadi.

Butun jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra o'z joniga suiqasd qilishning 800 ta sabablari mavjud ekan, ulardan eng ko'p uchraydiganlari:

- 36 foizi - noma'lum sabablarga ko'ra;
- 19 foizi - jazodan qo'rqish;
- 18 foizi - ruhiy kechinmalar;
- 18 foizi - turmush, uy tashvishlari;
- 6 foizi - ehtiroslarga berilish;
- 3 foizi - pul, mol-mulk yo'qotish.

G'ayritabiiy xatti-harakatlar nima ekanligini tushunish oson emas. Har bir alohida jamiyatda muayyan qoidalar, normalar va buyruqlar mavjud. Masalan, Meksikaning jinoiy hududlari uchun maqbul bo'lgan narsa dunyoning madaniy poytaxtlarida axloqsiz bo'lib tuyuladi. Deviant xatti-harakatlarning ko'p turlari mavjud, ularning barchasi bir nechta guruhlariga bo'linadi: jinoyatchi, axloqsiz, o'z joniga qasd qilish. Deviant xatti-harakatlarning har bir shakli batafsil ko'rib chiqilishi kerak. Giyohvandlikka qaratilgan deviant xatti-harakatlar turlari har xil bo'lishi mumkin - yengil shakldan og'ir shaklgacha. Ushbu og'ir ish quyidagi salbiy harakatlar bilan ifodalanadi:

- alkogol, giyohvand moddalar, tamaki mahsulotlariga qaramlik;
- qimor va kompyuter o'yinlariga qiziqish;
- fohishalik.

Qonunni buzadigan harakatlar, ataylab qilingan deviant xatti-harakatlar deb ataladi va ular o'qituvchilar, sotsiologlar va sud ekspertlari tomonidan nazorat qilinadi. Uch turi mavjud:

1. Zaif - og'ir jazoga olib kelmaydigan mayda huquqbuzarliklar, masalan, bezorilik, jamoat joylarida suiste'mol qilish, alkogol ichimliklarni ko'p ichish.

2. O'rtacha - Mehnat to'g'risidagi qonunlarning intizomiy buzilishi, masalan, ishdan kechikib qolish, ish vaqtida mast bo'lganda paydo bo'lish.

3. Og'ir - qonunni jiddiy buzadigan va javobgarlikka olib keladigan harakatlar, masalan fohishalik, giyohvandlik vositalarini sotish, o'g'irlik, jinsiy zo'ravonlik.

Tahlil va natijalar.

Adabiyotlarda deviant xulq-atvoriga ega o'smirlar bilan ishlashda art-terapiya va boshqa ijodiy usullarning roli alohida ta'kidlangan. Kramer (2000) tadqiqotida aytilishicha, badiiy amaliyotlardan foydalanish o'smirlarning hissiyotlarini ifodalash, o'z-o'zini boshqarishni yaxshilash va o'ziga bo'lgan ishonchni rivojlantirish imkonini beradi. Nelson va McCarthy (2008) tadqiqotida bu yondashuvlar orqali o'smirlar uchun xavfsiz muhit yaratilishi, bu esa ular o'zini erkin ifodalashi va yangi narsalarni sinab ko'rishiga imkon berishi ta'kidlangan. O'smirlarni og'ish xulqini aniqlash uchun "Kaktus" metodidan foydalandik. Bunda maktab o'quvchilaridan 7-sinf 20 ta o'smirlari tajriba sifatida oldik va o'quvchilarga A4 formatdagi list va rangli qalam tarqatib chiqildi. Barcha o'quvchilar listga kaktus rasmini qizish taklif etildi. Rasm chizish davomida o'quvchilarga savollar berib turildi. Rasm chizish davomida barcha o'smirlar kuzatildi. Bu usulda olingan natijalar miqdor va sifat jihatidan tahlil qilindi. Miqdoriy tahlil natijalari quyidagi jadvalda keltirilgan.

1-jadval

No	Jins	Jaxldorlik kuchli	Impulsivli	Egosentriz	Tobelik	Ochiqlik. Namoyish	Ehtiyotkor lik	Optimizm	Xavotirlan	Nozik did	Ekstravert	Oilaviy himoyaga	Yolg' izli kga intilish
1	O'gil	+	-	+	+	-	+	-	+	-	-	+	+
2	O'gil	+	-	+	-	+	-	+	-	+	+	-	-
3	O'gil	+	-	+	-	-	+	-	-	-	-	+	+
4	O'gil	+	+	+	+	-	+	-	+	-	-	+	+
5	O'gil	+	-	+	-	+	-	+	-	+	+	-	-
6	O'gil	+	+	+	+	-	-	-	+	-	-	-	-
7	O'gil	+	+	+	+	-	-	-	-	-	-	-	-
8	O'gil	+	+	+	+	-	-	-	-	-	-	-	-
9	Qiz	+	+	+	+	-	+	-	-	+	-	+	+
10	Qiz	+	+	+	+	-	+	-	+	+	-	+	+
11	Qiz	+	-	+	-	+	-	+	-	+	+	-	-
12	Qiz	+	-	+	-	+	-	+	-	+	+	-	-
13	Qiz	+	-	+	-	+	-	+	-	+	+	-	-

14	Qiz	+	+	+	+	-	-	-	+	-	-	-	-
15	Qiz	+	+	+	+	-	+	-	+	+	-	+	+
16	Qiz	+	+	+	+	-	+	-	-	-	-	+	+
17	Qiz	+	+	+	+	-	+	-	+	+	-	+	+
18	Qiz	+	-	+	-	+	-	+	-	-	+	-	-
19	Qiz	+	+	+	+	-	+	-	+	+	-	+	+
20	Qiz	+	+	+	+	-	+	-	+	+	-	+	+

Xulosa va tavsiyalar

Yuqoridagi jadvaldan 20 ta o‘smirlardan olingan natijalardan 70% o‘smirda tahlil natijasi past chiqdi, 30% o‘smirda yaxshi natijalarga erishildi. Yaxshi natija chiqqan o‘smirlar bilan suxbatlashganimizda oilasi tinch, o‘qimishli ota-onalar farzandi bo‘lib chiqishdi. Hattoki ota-onasi ham maktabda xurmatga sazovor insonlar ekanligi, farzand tarbiyasiga e’tiborli ekan. Bizni esa 70% past natija bergan o‘smirlar bilan olib brogan suxbatimiz davomida otasi yo‘q, bo‘lsa ham safarda yoki farzandga tarbiyasiga bee’tibor insonlar farzandi bo‘lib chiqishdi. Barcha o‘smirlarda “Jaxldorlik kuchli, Egosentrizm” yuqori chiqdi. 50% o‘smirlarda “oilaviy himoyaga intilish, yolg‘izlikka intilish, ehtiyotkorlik va yashirinlik” yaxshi natija bergan 30% o‘smirlarda “optimizm, ekstravert, ochiqlik va namoyishkoronalik, impulsivlik” natijalar aniqlandi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, buyuk davlatni qurish uchun barkamol inson tarbiyalanmog‘i zarur. Shu sababli yoshlarni huquqiy davlat tizimi va mohiyatini chuqurroq anglashi, qonun asoslarini bilishi, qonun hurmat qilishi, ularga so‘zsiz bo‘ysunishi madaniyatiga ega bo‘lishi ruhida tarbiyalash bugungi kunning asosiy vazifasidir. Deviant hulq-atvorning eng yaxshi profilaktikasi - bu tarbiyaning vositalari, shakllari va usullarini aniq belgilab olgan holda voyaga yetmaganlar ongiga maqsadga qaratilgan tashkiliy ta’sir ko‘rsatishdir. Huquqiy tarbiyani oldini olish imkoniyatlari tiyishning boshqa vositalariga qaraganda ancha samaraliroqdir. Chunki huquqiy profilaktika choralari odatda, birmuncha kechikadi va qilmish sodir etilgandan keyin amal qila boshlaydi. Buni aniq maqsadga qaratilgan tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish yo‘li bilan erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Жумаев, Н. 3. (2022). Психологические механизмы предупреждения формирования мотивации агрессивного поведения у педагогов. Science and Education, 3(4), 1517-1523

2. Змановская Е.В. - Девиантология. – 2-е изд., – М., 2004. – 288 с.
3. <https://bestpublication.org/index.php/sit/article/>
4. INNIVATIVE AKADEMY. “Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya” nomli ilmiy konferensiya. 70-72 b
5. “CONFERENCE ON UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH 2023. 120-122 b
6. Sotsiologiya molodeji. Uchebnik. /Pod red. V.T.Lisovskogo. SanktPeterburg, 1996